Приемы работы с пословицами и поговорками на уроке английского языка на средней ступени в средней общеобразовательной школе
Approaches to language teaching in practice today
Teaching receptive skills
Teaching productive skills
Teaching pronunciation
Planning lessons
Testing students
Integrating language skills
Psychological basis of foreign language learning
Grammar-Translation method: advantages and disadvantages
Инновационные технологии и методы в обучении иностранному языку
Использование инновационных технологий и методов в обучении аудированию
Использование инновационных технологий и методов в обучении говорению
Использование инновационных технологий и методов в обучении чтению
Чет тили ўқитишнинг ёрдамчи воситалари ва уларнинг дарс жараёнидаги аҳамияти
Чет тили дарсларида ўқитувчи ва ўқувчиларнинг ўзаро ҳамкорлик шакллари
Инглиз тилини ўргатишда график органайзерлардан фойдаланишнинг аҳамияти
Грамматикани ўргатишда грамматик ўйинлардан фойдаланишнинг аҳамияти
Ёзма нутқни ўргатишда интерактив методлардан фойдаланиш
Ёзма нутқни ўргатишда график органайзерлардан фойдаланишнинг самарадорлиги
Чет тилларни кросворд ва ребуслар билан ўқитишнинг замонавий усуллари
Кичик ёшдаги болаларга инглиз тилини ўргатишда кўргазмали қуролларни танлаш ва тайёрлашнинг усуллари
Шеър ёрдамида мактаб ўқувчиларининг чет тилида ўқиш кўникмасини шакллантиришнинг самарали усуллари
Чет тилини ўқитишда муаммони ечишга қаратилган шартларнинг (problem based task) ўрни ва самараси
Гапириш дарсларида “ҳаракатдаги тил” (language in action) усулини қўллашнинг самарали йўллари

Турли билим даражасига эга бўлган ўқувчилари бор синфда чет тилини ўқитишнинг қийинчиликлари ва уларнинг ечимлари
Гапириш дарсларида ташкил қилинадиган дебатларнинг ижобий ва салбий томонлари
Чет тили дарсида ижобий, дўстона ўқиш муҳитини яратишнинг ўзига хос йўллари ва самараси
Талабаларнинг чет тили дарсларига қизиқишини оширишда маданиятнинг ўрни
Драма дарсларини ташкил этишнинг усуллари ва самараси
Инглиз тилидаги идиомаларни ўқитишнинг самарали йўллари
Афоризмлар ёрдамида гапириш дарсларини ташкил этишнинг замонавий усуллари
Мақол ва маталлар ёрдамида гапириш дарсларини ташкил этишнинг замонавий усуллари
Кичик ёшдаги болаларнинг ёзма нутқини шакллантиришнинг самарали йўллари
Чет тили коммуникатив компетенцияси шаклланиши жараёнида талаффуз кўникмаларининг роли
Чет тили ўқитиш дарсларида грамматик ўйинлардан фойдаланиш вазифалари
Чет тили лексикасини ўргатишда педагогик технологияларни, инновацион таълимни қўллаш
Тинглаб тушуниш ва унинг чет тилини амалий жиҳатдан ўрганиш жараёнида тутган ўрни

## KURS ISHLARINING TARKIBIY TUZILISHI

Kurs ishi titul varag`i, mundarija, asosiy qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ruyxatidan iborat bulishi shart. Agar ilovalar bo`lsa, adabiyotlar ruyxatidan keyin joylashtiriladi. Kurs ishi rejasi 5-6 paragrafdan iborat bo`lib, ular kurs ishida o`rganilayotgan muammo xususiyatlarini qamrab olishi lozim. Shuningdek, kurs ishi o`zbek tilida bo`lsa, lotin alifbosida, rus tilida bo`lsa, kiril alifbosida yozilishi kerak.

Tahlil qilinayotgan muammo yuzasidan talaba turli adabiyot va manbalardan foydalanadi. Ishda talabalar professional etika qoidalarini buzilishiga (plagiat, ma'lumotlarni soxtalashtirish hamda yolg'on sitata keltirish) yo'l qo'ymasliklari lozim.

Kurs ishi, qoida tariqasida, standart varaqda 1,5 qator oralig`ida yozilishi lozim, har bir bet hoshiyasi: yuqoridan, pastdan va o`ngdan 2 sm, chapdan 3 sm bo`lishi, xat boshi 5 belgiga teng va bir xilda bo`ladi.

Kurs ishi matnini kompyuter vositasida bosib chiqarishda *Times New Roman* 14 o'lchamli shriftni qo'llagan holda Microsoft Word matn muharriridan foydalanish tavsiya qilinadi.

Kurs ishida ishtiboxlar (ssilka) 2 xil kurinishda Vstavka – Ssilka – Snoska, ya'ni, quyidagicha: <sup>1</sup>, (ishtibohda 11 o'lchamli shrift qo'llaniladi) yoki kvadrat qavslardagi raqamlar yordamida, masalan, [8, 62] shaklida. Ya'ni, bunda adabiyotning adabiyotlar ro`yxatidagi raqami va beti ko`rsatiladi.

Ishning hajmi titul varaq, mundarija, adabiyotlar ro'yxatidan tashqari 25-30 bet bulish talablari hisobga olinishi shart. Adabiyotlar ruyxati alfavit tartibida beriladi.

---

<sup>1</sup> Абдуазизов А. Тилшуносликка кириш. –Т.: Фан, 2002. – Б.62.

## KURS ISHINI TASHKILLASHTIRISH VA BOSHQARISH

Ingliz tilshunosligi kafedrasida bakalavriyat yunalishida Filologiya va tillarni o`qitish va Xorijiy til va adabiyoti yo`nalishi talabalariga *O`rganilayotgan til nazariy aspektlari* fanidan 1 ta va *Tillar o`qitish metodikasi va ta`lim texnologiyalari* fanidan 1 ta kurs ishi yozish ko`zda tutilgan. Kurs ishiga rahbarlik qilish odatda, tegishli kafedralarning pedagogik va ilmiy tajribaga ega bo`lgan yuqori malakali professor-o`qituvchilariga topshiriladi.

Kurs ishiga rahbarlik loyihaga topshiriq berishdan boshlanadi.

Loyiha topshirig`ini berishda asosiy bosqichlarni bajarish vaqtlari ko`rsatilgan grafik tavsiya qilinadi. Kurs ishlarini taqdim etish muddatlari OTM rahbariyati tomonidan mazkur yo`nalish o`quv rejasiga mos holda belgilanadi.

Kurs ishi topshirig`i ish rahbari imzosi bilan beriladi.

Kurs ishining ahamiyati, unga qo`yiladigan talablar, ishning tarkibi va kurs ishini rasmiylashtirish, topshiriqni bajarish bo`yicha umumiy topshiriqlar, uning hajmiga bo`lgan talablar haqidagi ma`lumotlar mazkur fan bo`yicha mashg`ulot o`tkazilganda tushuntiriladi.

Kurs ishini bajarish uchun talabaning mustaqil ishi sifatida vaqt ajratiladi va jadvalda ko`rsatilgan vaqtlarda o`qituvchi maslahati tashkil etiladi. Kurs ishi rahbari talaba ishni bajarishi jarayonida uning ijodiy bilimini rivojlantirishga harakat qilishi kerak.

Kurs loyihasini bajarish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi, birinchi bosqichni bajargandan so`ng keyingi bosqichni bajarishga ruxsat etiladi.

Talabalar tomonidan kurs ishining bajarilish jarayoni kafedra mudiri tomonidan muntazam ravishda nazorat qilinib, kafedra majlislarida muhokama etib boriladi.

Kurs ishi talaba tomonidan bajariladi. Qo`yilgan talablarga javob beruvchi kurs ishi rahbar tomonidan imzolanadi va hay`atda himoya qilish uchun tavsiya etiladi. Ilmiy rahbar taqrizsiz kurs ishlari himoyaga tavsiya etilmaydi.

## KURS ISHINING HIMOYASI

Kurs ishining sifati va uni bajarilishdagi talabaning faolligi, bilimi va ko'nikmalarini baholashning o'ziga xos shakllaridan biri ish himoyasidir. Bajarilgan ishni chuqur tushunishi, taklif etilgan muammo yechimlarini har tomonlama asoslab berish qobiliyatini shakllantirishda kurs ishining himoyasi muhim o'rin tutadi. Kurs ishi himoyasi kafedra tomonidan belgilangan 2-3 o'qituvchidan tashkil etilgan hay'atda, kurs ishi rahbari va guruh talabarlari qatnashuvida tashkil qilinadi. Ochiq himoya guruh talabalariga shu guruh a'zolari tomonidan bajarilgan ishlar bilan tanishishiga imkoniyat berishi bilan bir vaqtda, ish rahbarlarini himoya qilinayotgan ishlardagi bir xil talab bilan yondashishga olib keladi.

Himoya talaba tomonidan bajarilgan kurs ishi bo'yicha 8-10 minutli ma'ruza va savol javobdan iborat bo'ladi. Ma'ruzada ishning mohiyatini talaba har tomonlama yoritib berishi kerak. Savollar himoyada qatnashayotgan professor-o'qituvchilar tomonidan beriladi.

Kurs ishi umumiy "5" baho yuzasidan baholanadi. Rasmiylashtirilgan kurs ishi ilmiy rahbar tomonidan baholanadi. Shuningdek kurs ishi himoyasi vaqtidagi ma'ruza va savollarga javob alohida baholanadi. 3 ta bahoning o'rtachasi qo'yiladi. Himoya vaqtidagi qaydnoma ikki nusxada to'ldiriladi. Qaydnomalardan biri kafedrada, ikkinchisi dekanatda saqlanadi. Kurs ishni bajarishi va himoya qilish natijasida 3 o'tish bahosini olgan talabani reyting daftarchasiga ish rahbari tomonidan baho qo'yiladi.

Topshiriqda ko'rsatilgan muddatda kurs ishini himoyaga taqdim etmagan va sababsiz himoyaga kelmagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik guruh talabalarining kurs ishlari himoyasi yakunlangandan so'ng ishni bajarish jarayonida yo'l qo'yilgan turdosh kamchiliklar, eng yaxshi hamda sifatsiz kurs ishlari rahbar tomonidan tahlil qilinib suhbat o'tkaziladi.

Amaliy va nazariy ahamiyatga ega bo'lgan kurs ishlari talabalar ilmiy jamiyati (TIJ) tanlovlariga taqdim etiladi va rektorning buyrug'i bilan rag'batlantiriladi va amaliyotga joriy etish uchun taqdim etilishi mumkin.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
XORIJIY TILLAR FAKULTETI  
INGLIZ TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI**

11- 2 ING - 18- guruh talabasi

Sayfullayev Feruzning

**“SODDA, TUB, YASAMA VA QO'SHMA SO'ZLARNING O'ZIGA XOS  
MA'NOLARI”**  
mavzusidagi  
**KURS ISHI**

**5120112 – Filologiya va tillarni o`qitish (ingliz tili)**

**Ilmiy rahbar: Qobilova A.B**

**Buxoro 2020**

## MUNDARIJA:

1. SO'Z – TILNING ENG MUHIM BIRLIGI SIFATIDA.....	3
2. SODDA POLISEMANTIK SO'ZLAR.....	6
3. TUB VA YASAMA SO'ZLAR.....	9
4. INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QO'SHMA SO'ZLARNING YASALISHIDA O'XSHASH VA FARQLI TOMONLAR.....	14
5. SO'Z YASALISH TIZIMIDA QO'SHMA SO'ZLAR.....	22
XULOSA.....	31
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	35



## 1. SO'Z – TILNING ENG MUHIM BIRLIGI SIFATIDA

O'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, huquqiy, ongli, mukammal inson qilib tarbiyalash xozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Jismonan va ma'nan yetuk insongina jamiyat rivoji, yurt taraqqiyoti uchun sidqidildan xizmat qila oladi. Jamiyatimiz rivoji va yuksak taraqqiyotida, shuni aytishimiz muhimki, ertangi kunimiz hamda kelajagimiz poydevori bo'lgan yosh avlodning o'rni beqiyosdir.

Yosh avlodga ta'lim - tarbiya berishning eng muhim vazifalaridan biri ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdir. Bu vazifani xal qilishda maqsadga muvofiq ishlashning yetakchi sharti o'quvchini shaxs sifatida kamol toptirishdan iborat. Har bir o'quv predmeti o'z mazmuniga muvofiq ravishda o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirishga ma'lum xissa ko'shadi. Til bilan tafakkur izviy bog'liq bo'lib, tafakkur so'z orqali yuzaga chiqadi. Tafakkur tashqi dunyoning tushunchadagi ifodasi hisoblanadi. So'z tushunchaning shartli nomini o'zida aks ettiradi. O'quvchilar materiallarni o'rganish jarayonida tilimizning yangi so'zlar bilan boyib borishi haqidagi muhim manbalar bilan, so'z yasalishi bilan tanishib boradilar. O'qituvchi nazariy bilim berishda ham, berilgan bilimlarni amaliyotga tatbiq etishda ham bolalarning hayotiy tajribasiga, nutqqa oid praktikasiga tayanadi.

Tilning lug'at tarkibi qanchalik boy bo'lsa ham, grammatikasiz o'lik hisoblanadi. Tilning lug'at tarkibi o'z - o'zicha kommunikativ funksiya bajarmaydi. [1,53] Aloqa maqsadida xizmat qilish uchun lug'at tarkibidagi so'zlar bir-biri bilan grammatik jihatdan o'zaro bog'lanib, gap hosil bo'ladi. Mana shu tuzilgan gap orqali fikr ifodalanadi. Tilning har bir tomonining hususiyati undagi til birliklarining o'ziga xosligida namoyon bo'ladi. So'z tilning ma'no bildiradigan asosiy birligidir. So'z va so'z birikmasi aniq predmetlarni, mavhum tushunchalarni, emotsiyani bildiradi. So'z uchun muqarrar morfemik tarkibi harakterli bo'lib bunga so'zning leksik ma'nosi va qaktor grammatik belgilari bog'liq bo'ladi. Yangi so'z qaysi usul bilan yasalmasin, u doim grammatik shakllanadi va o'zining leksik ma'nosi bo'ladi. So'zning leksik ma'nosini aniqlash

uni morfemalarga ajratish til haqidagi fanda o'zining nazariy asosiga ega. O'quvchilar so'zning morfemik tarkibini va so'z yasashini o'rganishlariga qarab, so'zni morfemalarga ajratishdan ongli foydalana boshlaydilar. [1,89]

O'qituvchining asosiy diqqat e'tibori o'quvchilarning so'zni talaffuz qilishiga, leksik ma'nosi, morfologik tarkibi, grammatik belgilari, yasashi va nutqda ishlatilishi va yozilishini tushunishlariga qaratmogi kerak. O'qituvchi so'zning nom bo'lib xizmat qilishini, morfologik tarkibi, leksik ma'nosining bir-biriga ta'sirini ham o'quvchilarga tushuntirib borishi lozim. O'qituvchining vazifasi o'quvchilar so'zning so'zning leksik ma'nosiga tushunibgina qolmay, kontekstda so'zlardan ongli foydalana olish malakalarini shakllantirish, o'quvchilarning aqliy qobiliyatini o'sishida, hususan til birligi sifatida so'zni ongli bilib olish uchun zarur bo'lgan maxsus aqliy qo'nikmalarni shakllantirishdan, ta'lim jarayonida bilimni o'zlashtirish bilan o'quvchilarda aqliy faoliyatni o'stiradigan abstraklashtirish, analiz, taqqoslash qo'nikmalarini shakllantiradigan sharoit yaratishdan iborat. [2,48]

So'zning leksik ma'nosi va uning qo'llash xususiyati so'z birikmasi yoki gapda ma'lum bo'ladi. So'z tarkibiga ko'ra morfologik tahlil qilish uning leksik ma'nosini o'quvchilar tushunishida, morfemalarni to'g'ri yozishda yordam beruvchi muhim vositadir. Tilshunoslik fanida so'zning umumiy ta'rifi yaratilgan emas. "So'z bir qancha 'ma'no'ga ega bo'la olmaydi, - deb yozadi B.A.Звегинцев.[2,78]

So'z ma'nosida muayyan umumlashtirish natijasida mustahkamlanar va bu umumlashtirish prosesi tilning butun hayoti va taraqqiyoti davomida to'xtamas ekan, bir so'zda bir qancha yo'nalishdagi umumlashtirish parallel amalga oshishi mumkin emas". Shuning uchun so'zda birdan ortiq ma'no ham yuzaga kelmaydi.

So'z tilning eng ma'noli birligi bo'lib gap tuzishda nutqda erkin tiklanish hususiyatiga ega. So'z tilning eng muhim birligi, chunki so'zda til strukturasi barcha asosiy elementlari birlashadi.

Ingliz tilida ham sodda, tub, yasama va ko'shma so'zlar mavjud bo'lib, inliz tili lug'at tarkibini boyitishga xizmat ko'rsatadi. Tilimizga o'zlashgan inglizcha

soʻzlarni ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy, madaniy - maʼrifiy va sport sohasi mavzuviy guruhlariga ajratib oʻrganish mumkin. Sport sohasi mavzuviy guruhiga oid inglizcha oʻzlashmalar mustaqillikdan soʻng shu qadar koʻp oʻzlashdiki, ularni madaniy - maʼrifiy soha soʻzlaridan ajratib, sistemali tarzda oʻrganish qulay va oʻrinlidir. Hozirgi paytda bu soʻzlarning koʻpchiligi zamonaviy qatlam soʻzlari sifatida ogʻzaki va yozma nutqda faol ishlatilmoqda. Tilimizga oʻzlashgan inglizcha soʻzlarni ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy, madaniy - maʼrifiy va sport sohasi mavzuviy guruhlariga ajratib oʻrganish mumkin. Sport sohasi mavzuviy guruhiga oid inglizcha oʻzlashmalar mustaqillikdan soʻng shu qadar koʻp oʻzlashdiki, ularni madaniy - maʼrifiy soha soʻzlaridan ajratib, sistemali tarzda oʻrganish qulay va oʻrinlidir.

Til tarkibidagi leksik maʼnolar doimo oʻzaro maʼlum munosabatda boʻladi. Ayrim soʻzlar anglatgan maʼnolariga koʻra bir - biriga yaqin, boshqalari esa, bir-birini inkor qiladi, qarama - qarshi maʼno anglatadi. Bu nuqtai nazardan sinonim va antonim soʻzlar farqlanadi. Soʻzlar shakl nuqtai nazardan ham maʼlum munosabatda boʻladi. Baʼzan tillarda shakli bir - biriga oʻxshash, yaʼni shakldosh soʻzlar uchraydi. Tilshunoslikda bunday soʻzlarni ikki turga ajratib oʻrganish qabul qilingan: omonimlar va polisemantik soʻzlar.

Xulosa qilib aytganimizda, soʻz tuʻgrisida aytilgan mulohazalardan quyidagicha xulosa chiqarish mumkin. Soʻz tilning mustaqillikga ega boʻlgan, ayrim maʼno va emotsiyalarni bildiradigan, fonetik va grammatik jihatdan shakllangan, tugallikga ega boʻlgan birligidir. Demak, soʻz maʼno va shakllanish jihatidan yahlitlikka, maxsuslikka ega, u semantik va fonetik, grammatik butunlikdir.

## **2. SODDA POLISEMANTIK SOʻZLAR**

Soʻzlar tuzilishiga koʻra: sodda, qoʻshma va juft boʻladi. Birgina oʻzakdan tashkil topgan soʻzlar sodda soʻzlar deyiladi. kitob, yozmoq, katta, unumli, majburan. Sodda soʻzlar tub va yasama boʻladi. Tarkibida soʻz yasovchi qoʻshimchalar boʻlmagan soʻzlar tub soʻz deyiladi. Sodda soʻzlarda oʻzak bitta boʻladi. Lekin baʼzi qoʻshma soʻzlar oʻz xususiyatini yoʻqotib sodda soʻz oʻrinini oladi. Masalan: kechqurun qadimda kech va qurun degan mustaqil soʻzlardan iborat

edi. Ijtimoiy taraqqiyot natijasida qurun so'zining asosiy ma'nosi yoqoldi va u faqat sodda so'z tarkibida qoldi. Yomg'ir so'zi yog' va amir so'zidan yasalgan bo'lib qo'shma so'z sanalar edi, lekin hozir uning tarkida tovush o'zgarishi yuz bergani uchun soda so'zga aylanib qolgan. *Zararkunanda, dardisar, astoydil santimo'r, odamshinavanda, aeroport* kabi so'zlar ham o'zlashgan bo'lib ular aslida ikkita so'zdan iborat bo'lsa - da, o'zbek tiliga o'tgach, soda so'zga aylangan.

So'zning ma'no tarkibi va u bilan bog'liq hodisalarni o'rganuvchi leksikologiya bo'limi semasiologiya deyiladi. So'zlarning ayrimlari faqat bir leksik ma'nodan, ayrimlari ikki va undan ortiq leksik ma'nodan tarkib topadi. Shu xususiyatiga ko'raular ikkiga bo'linadi. [ 24,88]

Sodda polisemantik so'zlarning leksik ma'nolari faqat o'zi oid bo'lgan turkum vazifasini bajaradi. Ular o'zbek tilidagi fe'l, olmosh turkumiga oid barcha polisemantik so'zlarni o'z ichiga oladi. Ya'ni fe'l va olmosh turkumiga oid so'zlarning leksik ma'nolari boshqa turkum vazifasini bajarmaydi. Bu fikrni fe'l turkumiga oid polisemantik so'zlarda talqin qilinsa, tushunish uncha qiyin emas. Chunki fe'l turkumiga oid so'zlar umuman turkiy tillarda o'ziga xos shaklga ega bo'lib, ular sof holatda boshqa turkum shakllarini qabul qilmaydi, shuningdek boshqa turkum vazifasini bajarmaydi. Shuni ta'kidlash joizki, fe'l hech qanday xoslangan shaklga kirmagan, sof fe'l holatida biror leksik ma'nosi asosida boshqa turkum vazifasini o'tamaydi. Agar u fe'lning xoslangan shakllaridan biri: yo sifatdosh, yo ravishdosh, yo harakat nomi shakliga kirsa, boshqa turkum vazifasiga o'tishi muqarrar. Har holda bu fe'lning xoslangan shakliga xosdir. Olmosh turkumiga oid so'zlarning leksik ma'nolari boshqa turkum vazifasida kelmasligini boshqacha izohlash kerak. Chunki olmosh turkumiga oid so'zning o'zi boshqa so'z turkumining o'rnida almashib kelgan bo'ladi. Uning tarkibidagi leksik ma'nolar turlicha turkumga oid vazifani bajarib kelayotgan bo'lishi mumkin. Ammo ular o'zining mavhumligicha va tushunchalarni to'g'ridan-to'g'ri ifoda etmay, unga ishora qilayotganligi yoki uni ko'rsatayotganligi xususiyati bilan olmosh turkumiga xos bo'lib qolaveradi. Ko'rinib turibdiki, fe'l va olmosh turkumidagi barcha polisemantik so'zlar sodda polisemantik so'zlardir. Grammatik ma'no

anglatishning yana bir vositasi soʻz tartibidir. Soʻzlarning gapda maʼlum tartibda joylashtirilishi ham grammatik maʼno ifodalashga xizmat qiladi. Bu vosita ayniqsa, sintaksis uchun ahamiyatlidir. Soʻz tartibi xitoy-tibet oilasiga kiruvchi tillar va tarkibi shu tillarga oʻxshash boʻlgan boshqa tillarda juda katta ahamiyatga ega. Hozirgi zamon ingliz va fransuz tili uchun ham bu vosita muhim hisoblanadi. Bu tillarda soʻz tartibi soʻzlarning gapdagi vazifasi, ularning qaysi soʻz turkumiga taalluqli ekanini koʻrsatadi:

1. *The ball hit the boy. Koptok bolaga tegdi.*
2. *The boy hit the ball. Bola koptokni tepdi.*
3. *A clown called a clown a clown.*

Masxaraboz masxarabozni masxaraboz deb atadi. 1 va 2-gaplarda soʻz tartibi oʻzgarishi bilan gap boʻlaklari ham oʻzgaradi. 1-gapda ega The ball, chunki u kesimdan oldin, yaʼni birinchi oʻrinda turibdi; 2-gapda esa bu soʻz toʻldiruvchi, chunki u kesimdan keyingi oʻrinda oʻtimli feʼldan keyingi uchinchi oʻrinni egallab turibdi, bu oʻrin - toʻldiruvchining oʻmidir. Shu munosabat bilan uchinchi gap, ayniqsa diqqatga sazovor: bu gapda uchta clown soʻzi bor, ular bir-biridan grammatik shakli jihatidan hech qanday farq qilmaydi, lekin shunga qaramay, ular uch xil vazifani bajarayotir: birinchisi -ega, ikkinchisi - vositasiz toʻldiruvchi, uchinchisi – vositali toʻldiruvchi. Bu soʻzning bunday sintaktik vazifalarini biz ularning shakllari orqali emas (chunki ularning shaklida farq yoʻq), balki gapda tutgan oʻrniga qarab aniqlaymiz. Soʻz tartibining bunday xususiyati gapda soʻz tartibi qatʼiy boʻlgan tillarga xosdir. Baʼzi soʻz tartibi qatʼiy boʻlmagan tillarda bu vosita orqali soʻzning qaysi kelishikda ekanligini aniqlash ham mumkin.

Qoʻshma yoʻl bilan yasalgan negizlarning yasama negizlarga oʻtish yoki qoʻshma negiz bilan yasama negizning tub negizga oʻtish hodisalari soddalashuv deyiladi. Boshqacha qilib aytganda, koʻp morfli soʻzning bir morfli soʻzga oʻtib qolish hodisasi tilshunoslikda soddalashuv deb nom olgan. Odatda, bu hodisa soʻzning ichki shaklini yoʻqotishi, yaʼni morflar orasidagi chegaraning buzilishi natijasida roʻy beradi. Soddalashuv ikki sababga koʻra sodir boʻlishi mumkin:

- 1) u yoki bu morf maʼnosini kuchsizlanishi va asta-sekin yoʻq boʻlib ketishi;

2) bir soʻzdagi oʻzakni oʻziga qardosh boʻlgan boshqa oʻzaklar bilan aloqasining uzilishi natijasida.

Soʻzning morfologik tarkibining soddalashuvi, ayniqsa bir tildan ikkinchi tilga soʻz oʻzlashtirilganda koʻp roʻy beradi: yasama va qoʻshma soʻzlar sodda soʻz sifatida oʻzlashtiruvchi tilga kirib keladi. Masalan, ingliz tilidan oʻzlashtirilgan futbol soʻzi oʻzbek tilida tub soʻz hisoblansa, ingliz tilida qoʻshma soʻzdir: foot - oyoq va ball – toʻp. Nemis tilidan kirib kelgan kurort soʻzi ham bu tilda qoʻshmadir, yaʼni kur - dam, ort - joy. Oʻzbek tiliga fors tilidan kirib kelgan astoydil soʻzi garchi oʻzbek tilida tub soʻz hisoblansa ham, fors tilida uch soʻzdan tashkil topgan - az tagi dil.

### 3. TUB VA YASAMA SO'ZLAR

Ingliz tilida tub soʻz - oldiga qoʻshimchasi yoki qoʻshimchasi qoʻshilmagan asosiy soʻz (prefiks - bu soʻz boshida ketadigan harflar qatori; suffiks - bu soʻz oxirida ketadigan harflar qatori). Ildiz soʻziga prefiks va qoʻshimchalar qoʻshib, uning maʼnosini oʻzgartirishimiz mumkin.

Yasama soʻz — yasovchi qoʻshimchalar yordamida hosil qilingan yasama soʻzga asos boʻlgan komponent — soʻz yasaliş asosi yoki motivlovchi asos, undan hosil boʻlgan, yaʼni Yasama soʻzlar esa motivlanuvchi asos deyiladi. Yasama soʻzning maʼnosi ana shu motivlovchi komponent va yasovchi qoʻshimchaning maʼnosi bilan asoslanadi, shu qismlarning maʼnosidan kelib chiqadi. Soʻzning yasalgan yoki yasalmaganligini belgilashda hozirgi til nuqtai nazaridan qaraladi.

Prefikslarning asosiy vazifasi soʻzning leksik maʼnosini oʻzgartirishdir. Prefikslar turli xil mezonlarga koʻra klassifikatsiya qilinishi mumkin.

1. Semantik, yaʼni maʼno jihatiga koʻra klassifikatsiya:

- a) inkor maʼnoli prefikslar: *in-* (*invaluable*), *non-* (*nonformals*), *un-* (*unfree*);
- b) ish – harakatning takrorlanishini bildiruvchi prefikslar: *de-* (*decolonize*), *re-* (*revegetation*), *dis-* (*disconnect*);
- d) vaqt, masofa va daraja maʼnolariga ishora qiluvchi prefikslar: *inter-* (*interplanetary*), *hyper-* (*hypertension*), *ex-* (*ex-student*), *pre-* (*pre-election*), *over-* (*overdrugging*).

2. Prefikslarning kelib chiqishiga quyidagi guruhlarini koʻrishimiz mumkin:

- a) milliy (German tillariga oid): *un-*, *over-*, *under-* etc;
- b) roman tillariga oid: *in-*, *de-*, *ex-*, *re-* etc;
- d) grek tiliga oid: *sym-*, *hyper-* etc.

Suffikslarning ingliz tilidagi asosiy xizmati – soʻzlarning oxiriga qoʻshilib, yangi maʼno yaratish. Suffikslarning qaysi soʻz turkumida soʻz yasashi, maʼno jihati, kelib chiqishi va produktivligiga koʻra bir nechta turlari mavjud.



1. Ingliz tilida suffikslar qaysi soʻz turkumiga oid soʻz yasashiga koʻra (bunda suffikslar bir soʻz turkumidagi soʻzdan boshqa soʻz turkumiga oid soʻzni yasashga xizmat qiladi) quyidagi guruhlarga boʻlinadi:

1) ot yasovchi suffikslar: *-er* (*fight – fighter*), *-dom* (*fre – freedom*), *-ist* (*biology – biologist*);

2) sifat yasovchi qoʻshimchalar– *able* (*eat – eatable*), *-less* (*symptomless*), *-ous* (*continuous*);

3) feʼl yasovchi qoʻshimchalar: *-ize* (*computerize*), *-ify* (*micrify*);

4) ravish yasovchi qoʻshimchalar: *-ly* (*slowly*), *-ward* (*tableward*);

5) son yasovchi qoʻshimchalar: *teen* (*fourteen*), *-ty* (*sixty*).

2. Semantik, yaʼni maʼno jihatiga koʻra ingliz tilida suffikslar quyidagicha klassifikatsiya qilinadi:

a) ish–harakat bajaruvchisi: *-er experimenter*, *-ist taxiist*, *-ent* (*student*);

b) millat: *-ian* (*russian*), *-ese* (*Chinese*), *-sh* (*English*);

d) collectivity: *-ry* (*peasantry*), *-ship* (*leadership*), *-ati* (*literati*);

e) kichraytirish–erkalash: *-ie* (*horsie*), *-let* (*booklet*), *-ette* (*kitchenette*);

f) sifat: *-ness* (*hopelessness*), *-ity* (*answerability*);

3. Oʻzakning leksik–semantik xususiyati boʻyicha maʼlum bir oʻzaklarga qoʻshiladigan suffikslar quyidagilarga boʻlinadi:

a) feʼlga qoʻshiluvchi qoʻshimchalar: *-er* (*commuter*), *-ing* (*suffering*), *-able* (*flyable*), *-ment* (*involvement*), *-ation* (*computerization*);

b) otga qoʻshiladigan qoʻshimchalar : *-less* (*smogless*), *ful* (*roomful*), *-ism* (*adventurism*), *-ster* (*pollster*), *-nik* (*filmnik*), *-ish* (*childish*);

d) sifatlarga qoʻshiladigan qoʻshimchalar: *-en* (*weaken*), *-ly* (*pinkly*), *-ish* (*longish*), *-ness* (*clannishness*).

4. Kelib chiqishiga koʻra suffikslarning quyidagi guruhlarni ajratib koʻrsata olamiz:

a) milliy (german tillariga oid), *-er*, *-ful*, *-less*, *-ly*;

b) roman tillariga oid : *-tion*, *-ment*, *-able*, *-eer*;

d) grekcha: *-ist*, *-ism*, *-ize*;

e) rus tiliga oid *-nik*.

5. Produktivligiga ko'ra suffikslarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

a) produktiv: *-er, -ize, -ly, -ness*;

b) yarim–produktiv: *-eer, -ette, -ward*;

d) produktiv bo'lmagan: *-ard (drunkard), -th (length)*.

Affiksatsiya jarayoni eng mahsuldor usuldan biri bo'lib, o'tmishdan hozirgacha yangi so'z yasashda xizmat qiladi. Bu usulda so'zga qandaydir qo'shimcha qo'shish orqali yangi so'z yasaladi. So'zning oldiga yoki so'zning oxiriga qo'shimcha qo'shish orqali bu jarayon produktivligini yo'qotmagan.

Konversiya. Konversiya ingliz tili so'z yasash tizimining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. U yana, shuningdek, qo'shimchalarsiz so'z yasash, deb ham ataladi. Konversiya so'zi “conversion” so'zidan olingan bo'lib, bu so'z birinchi marta Henri Svitning 1891– yilda chiqarilgan “yangi ingliz tili grammatikasi” kitobida ishlatilgan. Olimlar konversiya haqida turli xil fikrlarni ilgari surishgan. Masalan, professor A.I.Smirnitsky konversiya so'z yasashning morfologik usuli degan. Ushbu holatda bir so'z turkumiga oid so'z boshqa so'z turkumiga paradigmasini o'zgartirgan holatda o'tadi. [3, 309] Misol uchun, a dial oti o'z paradigmasini o'zgartirib, to dial fe'liga aylanadi. A. Marchand esa o'zining «The Categories and Types of Present–day English» kitobida konversiyani morfologik–sintaktik usul, deb atagan, chunki biz bunda nafaqat so'zning paradigmasini o'zgartiramiz, balki uning sintaktik vazifasini ham almashtiramiz. Masalam, *I need some good paper for my room* («paper» oti ushbu gapda to'ldiruvchi). *I paper my room every year* (bu gapda esa “paper” fe'li kesim vazifasida kelgan). [3,90]

Bugungi kunda konversiya ingliz tilida fe'l yasashning eng asosiy usullaridan biridir. Fe'llar turli xil semantik guruhlarga mansub otlardan yasaladi, shuning uchun turli ma'nolarga ega bo'ladi:

1) agar inson tana qismlarini bildiruvchi otdan yasalsa, fe'l instrument ma'nosiga ega bo'ladi: *to eye, to finger, to elbow, to shoulder* va boshqalar. Agar

asbob–uskuna, qurol, instrumentni bildiruvchi otdan yasalsa, fe'l instrument ma'nosiga ega bo'ladi: *to hammer, to machine–gun, to rifle, to nail*;

2) fe'llar o'zi yasalgan ot ishora qilgan tirik mavjudotlarga xos harakatlarga ishora qilishi mumkin: *to crowd, to wolf, to ape*;

3) agar predmetga ishora qiluvchi otdan yasalgan bo'lsa, fe'llar o'zlashtirish, qo'shimcha qilish yoki mahrum qilish ma'nolarini beradi: *to fish, to dust, to peel, to paper*;

4) o'zi yasalgan ot joy nomini bildirsa, fe'llar o'sha joyga ishora qilishi mumkin: *to park, to garage, to bottle, to corner, to pocket*;

5) o'zi yasalgan ot paytni bildirsa, fe'llar o'sha paytga ishora qilishi mumkin: *to winter, to week–end*.

Fe'llar sifatdan ham o'zlashtirishi mumkin, bunday holatlarda ular holatning o'zgarishiga ishora qiladi: *to tame, to clean, to slim*. Fe'llar ham otga o'zgarishi mumkin. Konversiya orqali yasalgan otlar quyidagilarga ishora qiladi:

1) qisqa vaqtda bajariladigan ish–harakatlar: *a jump, a move*;

2) jarayon yoki holat: *sleep, walk*;

3) o'zi yasalgan fe'l orqali ifodalangan ish–harakatning bajaruvchisiga: *a help, a flirt, a scold*;

4) o'zi yasalgan fe'l orqali ifodalangan ish–harakatning obykti yoki natijasiga: *a burn, a find, a purchase*;

5) fe'l tomonidan ifodalangan ish–harakat o'rniga: *a drive, a stop, a walk*.

Fe'ldan yasalgan ko'p otlar faqat birlik shaklda ishlatilishi mumkin va ular lahzalik ish–harakatlarga ishora qiladi. Bunda ular quyidagi fe'llar bilan birga ishlatiladi: *to have, to get, to take* va boshqalar. Masalan: *to have a try, to give a push, to take a swim*.

Konversiya usuli, yuqoridagilarni hisobga olib aytadigan bo'lsak, o'ziga xos so'z yasalishi usuliga kiradi va shu jihatlari orqali ushbu produktiv usulda muhim rol o'ynaydi.

Abbrivatura. So'z va so'z guruhlarining qisqarishi hisoblanadi. Bu qisqarishning sababi lingvistik va ekstra–lingvistik tusga egadir. Ekstra–lingvistik

sababida odamlar hayotining o'zgarishi va bu o'zgarishlar ko'pgina qisqarishlarga duch kelishini ko'rishimiz mumkin.

Zamonaviy ingliz tilida bir qancha yangi abrivatura formalari mavjud bo'lib, bu hayot tarzi jadallik bilan o'sib ketmoqda va imkon darajasida ko'p ma'lumotga ega bo'lishimiz kerak degani.

Qisqartma so'zlarning asosiy 2 ta turi bo'lib, ular grafik va leksik jihatdan farqlanadi. Grafik jihatdan ular yozma matnda joylarni kamroq egallash uchun ishlatiladi. Ular ham o'z o'rnida bir nechta semantik guruhlariga bo'linib ketadi. Biz bu yerda misollar berish bilan kifoyalansak maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan: *days of weeks – Mon., names of month – Apr., names of countries – UK.*

#### 4. INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA QO‘SHMA SO‘ZLARNING YASALISHIDA O‘XSHASH VA FARQLI TOMONLAR

Ma'lumki qo'shma so'zlar har tilda turli xil o'rganilib kelinadi. Bu fikrni uzoqqa ketib o'tirmasdan bizga yaqindan tanish bo'lgan o'zbek, rus, nemis va ingliz tillarida ko'rish mumkin. o'zbek tilida ham ingliz tilida ham qo'shma so'zlarning o'ziga xos o'rganilishi bor va ularning o'rtasida turli xil o'xshashliklar va farqlar mavjud. Aytish kerakki, o'zbek tilida qo'shma so'zlarning turlari mavjud emas, lekin ingliz tilida ular 4ta turga bo'linadi.

1. Endosentrik
2. Ekzosentrik (shuningdek "bahuvrihi")
3. Kopulativ (shuningdek "dvanda")
4. Appozitiv

Endosentrik qo'shma so'zlarga juda ham ko'plab misollar keltirishimiz mumkin. Masalan, *superman, fishnet, mainland, caveman, skyscraper, eyeglasses, stepson, stonewall, stockroom, bluebird, taskmaster, shoemaker, teaspoon, sunlit, snowbird, fishhook, shipskin, tigerskin, fishbowl, tablespoon, airman* va boshqalar. Yuqorida qayd etilgan misollarda birinchi component ikkinchisini va ikkinchi component esa birinchisini aniqlab kelgan.

Ekzosentrik qo'shma so'zlar ingliz tilida kam uchrasa ham nutqda qo'llaniladi. Bunday qo'shma so'zlardan anglashilayotgan narsa va hodisa so'z ma'nosi bilan juz'iy bog'liq bo'lsada aynan shu so'zlar anglatgan ma'nolarga uzviy aloqasi bo'lmaydi. Bu ta'rif hech qanday e'tirozlarsiz ikkala o'zbek va ingliz tillaridagi attributiv qo'shma so'zlar uchun umumiy deb olinishi mumkin, chunki ular orasidagi o'xshashlikni anglash qiyin emas. Misol uchun, ingliz tilidagi "egghead" qo'shma so'zini olsak, u tuxum shaklidagi boshni emas, balki umuman boshqa ma'noniya'ni 'judayam zehni o'tkir shaxsni ifodalab kelmoqda. Yoki "longlegs" so'ziga murojaat qiladigan bo'lsak, u 'uzun oyoqli odamni emas, balki kriket o'yinida to'p oshiruvchining orqa tomonida turadigan o'yinchi ma'nosini ochib bergan. Shu o'rinda o'zbek tiliga to'xtaladigan bo'lsak, bunday misollarni ko'p uchratishimiz mumkin. Fikrimning

isboti sifatida “xumkalla” so‘ziga izoh bersak. Bu yerda kallasi xumga o‘xshagan odamni va albatta, asosan miyasi yo‘q, kallavaram, qovoqbosh ya‘ni esi pastroq odamni tushunamiz. Yoki bo‘lmasam “qovoqbosh” so‘ziga ta‘rif bersak, lug‘at tarkibiga kiritilmagan bo‘lsa ham kundalik nutqimizda ko‘p qo‘llaymiz, qaysi ma‘nodaki boshining o‘rnida xuddi qovoq turgandek, miyasi ishlaydigan, bo‘m bo‘sh kishi sifatida.

O‘zbek tilida kompozitsiya usuli bilan qo‘shma otlar hosil qilinadi: toshko‘mir, tuyaqush, karnaygul, oybolta, sadarayhon, ko‘kqarg‘a, qoraqurt, mingoyoq, lar ham hosil bo‘ladi.

Ingliz tilida qo‘shma otlar asosan otli iboralardan tashkil topadi. Ular sifatlar vaotlar tomonidan aniqlanib kelinadi. Masalan, ‘*science fiction*’ so‘ziga ‘*writer*’ so‘zini qo‘shsak, murakkab qo‘shma so‘z hosil bo‘ladi. Lekin shu yerda ikkala til o‘rtasida muammoli, izohtalab masala paydo bo‘ladi, chunki yuqoridagi misol ingliz tilida murakkab qo‘shma so‘z hisoblanadi, lekin unga o‘zbek tilida so‘z birikmasi sifatida qaraladi. Asosan o‘zbek tilida qo‘shma so‘zlar ikki yoki uchta komponentdan tashkil topgan bo‘ladi, lekin o‘zbek tilidan farqli o‘laroq ingliz tilida murakkab qo‘shma so‘z turi mavjud, ammo o‘zbek tilida bu masala hali ham tilshunoslarimizning va bizning chuqur izlanish va o‘rganishimizni kutayotgan katta ishlardan biridir.

o‘rinda inglizlar qo‘shma otlarni ham turlarga ajratganlar:

1. Muvozanatlashgan yoki qolipga tushgan qo‘shma otlar. Ular ikkita qisqa bo‘g‘inli otdan tashkil topib, tilda uzoq vaqtdan beri qo‘llanilishda bo‘lgan qo‘shma otlar hisoblanadi, *housewife*, *lawsuit*, *wallpaper*, *basketball* lkabilar.

2. Chiziqcha bilan yoziladigan qo‘shma otlar. Bunda ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan qo‘shma otlar chiziqcha orqali ajratib yoziladi. Ular o‘z ichiga affikslarni, artikl, predlog, va bo‘g‘lovchilarni ham olishi mumkin. Masalan, *house-build(er)*, *single-mind(ed)(ness)*, *rent-a-cop*, *mother-of-pearl*

3. Ajratib yoziladigan qo‘shma otlar. Ular odatdagidan uzunroq so‘zlar hisoblanadi, jumladan *distance learning*, *lawn tennis*, *player piano* kabi.

O‘zbek tilida qo‘shma so‘zlarning so‘z birikmasidan (aniqrog‘ isifatlovchi

birikmalardan) farqlab olish qo'shma otlarni so'z birikmasidan farqlab olishga nisbatan ancha qiyinroq. Predmet belgisi sodda, qo'shma sifatlardan tashqari, sifatlovchi birikmalar vositasida ham ifodalanadi. Bu hol qo'shma sifatlardan bilan sifatlovchi birikmalarni farqlashda ma'lum qiyinchiliklar keltirib chiqaradi.

Sifatlar tuzilishiga ko'ra uch turga bo'linadi: sodda, qo'shma va juft.

Sodda sifatlar shaklan bir o'zakli yoki birnegizli yakka so'zlardan tashkil topadi. Bunda ular yakka o'zakdan iborat bo'ladi: a) oq, qora, yaxshi, yomon, zo'r, katta, keng b) biror affiks yordamida yasalgan yasama sifatdan iborat bo'ladi: bolali, ommaviy, uyatchang, suvsiz kabi.

Qo'shma sifatlar ikki yoki undan ortiq sifatlarning birikuvidan hosil bo'lgan sifatlar hisoblanadi. Qo'shma sifatlar bir bosh urg'u bilan aytilib, bir belgi xususiyatni ifodalash uchun xizmat qiladi: och sariq, ko'p bolali, qalin qosh kabi.

Qo'shma sifatlar sostav jihatdan quyidagicha qismlardan iborat bo'ladi:

a) sifat + sifat *to'q ko'k, ola qashqa, erka- arzanda, ijtimoiy- siyosiy, madaniy-ma'rifiykabi ;*

b) sifat+ ot: *ochiq ko'ngil, yalang oyoq( oyoq yalang), ochko'z, xushfe'l, sofdil, qora qoshkabi;*

c) sifat+ ot + sifat yasovchi affiks: *ko'k ko'zli, o'tkir zehni, qizil bayroqli kabi;*

d) ot+ ot: *qo'y ko'z, sher yurak, tosh bag'ir, echki soqol, bodom qovoq kabi;*

e) ot+ ot+ sifat yasovchi affiks: *temir irodali, it fe'lli kabi;*

f) ot+ sifatdosh: *tinchliksevar, erksevar, ko'zilg'amas, ishyoqmas kabi;*

g) ravish+ fe'l: *ertapishar, kechpishar, tezoqarkabi;*

h) son+ot+sifat yasovchi affiks to'rt bolali, *ikki g'ildirakli, uch elementli ;*

i) ot + affiks+ *bor (yo'q)* so'zlari bahosi yo'q, tengi yo'q, aqli bor (yigit) va hokazolar.

Juft sifatlar esa predmetning umumiy bir belgisini ifodalaydi, odadtda ikki sodd sifatdan teng bog'lanish yo'libilan yasaladi. Bunday sifatlar quyidagi yo'llar bilan hosil qilinadi:

1. Bir xildagi ikki sifatning takrorlanishidan: *yaxshi-yaxshi, balandbaland, katta-katta, past-past*;

2. Ma'nodosh ikkita sinonimik sifatdan: *qing'ir-qiyshiq, pishiq-puxta* kabilar. Qo'shma sifatlar bilan sifatlovchi birikmalarni bir-biridan farqlashda faqat ma'noni – predmetlik belgisini bildirishidagina emas, balki formani- grammatik belgini ham asosga olish kerak.

Fe'llardan ham xuddi shu usul orqali qo'shma fe'llar yasaladi. Qo'shma fe'llar komponentlarining qaysi turkumga oidligiga ko'ra ikki asosiy turga bo'linadi:

1. ot+fe'l tipidagi (fe'l bo'lmagan so'z bilan fe'lning birikishidan hosil bo'lgan) qo'shma fe'llar;

2. fe'l+fe'l tipidagi (ikki fe'lning o'zaro birikishidan hosil bo'lgan) qo'shma fe'llar: hurmat qilmoq, sotib olmoq kabi.

Mazkur qo'shma fe'llar qatnashgan misollarga qarang: Turg'un uni begonaday qarshi oldi. (H.N) Chevaringizni uydan chaqirib olishga kuchimiz yetmaydi, o'zingiz ruxsat oberasiz-da opoqingizdan.(H.N) Ot+fe'l tipidagi qo'shma fe'llarning ko'pgina qismini qilmoq, aylamoq, etmoq yoki bo'lmoq fe'llarining birikishidan hosil bo'lgan bayon qilmoq, kashf etmoq, kasal bo'lmoq tipidagi birikuvlar tashkil etadi. Fe'l bo'lmagan so'zning qilmoq, aylamoq, etmoqfe'li bilan birikishidan har vaqt qo'shma fe'l hosil bo'lavermaydi. Bunday birikuvlarda qilmoq, aylamoq, etmoq yoki bo'lmoq fe'llari bo'g'lama vazifasida qo'llanilishi mumkin. Ular bunday vazifada qo'llanganda qo'shma fe'l hosil qilmaydi. Qiyoslang: o'qituvchi edi-o'qituvchi bo'ladi. Bunda o'qituvchi bo'ladi birikuvi qo'shma fe'l emas, chunki o'qiyuvchi va bo'l so'zlarining birikishidan yangi so'z (qo'shma so'z) hosil bo'layotgani yo'q. Tasdiq qildi, tasdiq bo'ldi birikuvlari esa qo'shma fe'l hisoblanadi. Buni qil va bo'l fe'llarini –la va –lan affikslari bilan almashtirish mumkinligi aniq ko'rsatadi: tasdiq qildi-tasdiqladi, tasdiq bo'ldi-tasdiqlandi.

O'zbek tilida ikki fe'lning o'zaro birikishidan hosil bo'luvchi qo'shma fe'llar u qadar ko'p emas. Ular ham o'z tarkibidagi komponentlari ma'nosidan



farqli bo‘lgan yangi ma’no ifodalaydi: olib kelmoq, sotib olmoq kabi: Hamma qo‘lini yuziga olib borib, omin qildi. Urushdan qochgan askarlardan qurol-yarog‘ sotib olib, bosqinchilik qilishgacha borib yetiptilar. Chumchuq o‘zini opqochib, pirr etib olg‘a uchdi-da, nim qorong‘l yo‘lakka kirib ketti.

Shu ma’noda agar ingliz tilidagi qo‘shma fe’llarga izoh beradigan bo‘lsak, ular asosan predlog+ fe’l va boshqa tipdagi ko‘rinishlarda bo‘ladi. Misol uchun,

*Predlog+ fe’l- overrate, underline, outrun;*

*Ravish+ fe’l- downsize, upgrade;*

*Sifat + fe’l - whitewash, blacklist, foulmouth;*

*Ot + fe’l - browbeat, sidestep, manhandle;*

*Predlog + ot - out-Herod, out-fox.*

Ingliz tilida ot+ fe’l tipidagi qo‘shma fe’llar kam uchraydi, chunki ot odatda fe’lga vositali to‘ldiruvchi sifatida bog‘lana olmaydi. Ingliz tilida ‘bread –bake’, ‘car-drive’ tipidagi qo‘shma so‘z yo‘q, lekin shunday bo‘lsa ham biz yuvish uchun berilgan yo‘riqnomani ( handwash ) va badiiy adabiyotlardagi qo‘shma so‘z ham (breastfeed) kabi qo‘shma so‘zlarga duch kelamiz.

Qo‘shma otlarning yana bir xususiyati ularning ikkala komponenti ham urg‘u oladi. Hattoki urg‘u oladigan qo‘shma so‘z ajratib yozilsa ham uning har ikkala qismiga ham birdek urg‘u tushadi. Masalan, *FOOTball; ARMchair; Mailbox* va boshqalar. Ammo istisno tariqasida manKIND so‘zini olishimiz mumkin.

O‘zbek tilida qo‘shma so‘zlarning o‘rganilishida yakdillik yo‘q. Zero ayrim olingan bir til birligining o‘zi qo‘shma so‘z yoki bo‘lmasa so‘z birikmasi sifatida izohlaniladi. Masalan, “og‘ir oyoq” til birligi o‘zbek tilining izohli lug‘atida “og‘ir oyoq” deb ajratib yozilib, so‘z birikmasi sifatida beriladi va shu sahifaning o‘zida “og‘iroyoq” xomilador ma’nosida qo‘shma so‘z deb izohlaniladi va bu til birligining ikkinchi qo‘shma so‘z variantini to‘g‘riroq deb ma’qullaniladi [7,88].

Ikkala holatda ham mazkur til birliklarining nima sababdan qo‘shib yozilishi yoki nima sababdan ajratib yozilishi va ularning birga yoki ajratib yozilgan

holatlarida ma'no jihatdan o'zgarish yoki farqi bor yo'qligiga izoh berilmaydi. Bizning fikrimizcha, bu va bunga o'xshash masalalar ilmiy jamoatchilik tomonidan kengroq o'rganilishi va mazkur muammolarga oydinlik kiritilishi zarur.

O'zbek tilidagi qo'shma so'zlarning o'zaro ma'no mazmuniga qarab muayyan turlarga bo'lib o'rganilish imkoniyatiga kelsak, o'zbek tilida ham ularni G'arbiy Yevropa tillaridagi qo'shma so'zlarning bo'linish xususiyatlarini sezish qiyin emas. Masalan, “*temir qoziq*” yoki “*yog'och qoziq*” qo'shma so'zlari ikki komponentdan iborat bo'lib, ularning biri ikkinchisini aniqlab kelayotganligi va shu nuqtai nazardan ularni “atributiv qo'shma so'zlar” turiga ajratish har qanday e'tirozdan holi narsa. Zero, mazkur qo'shma so'zlardagi birinchi aniqlovchi komponent ikkinchi aniqlanmish (asosiy so'z) “qoziq”ning temirdan yoki yog'ochdan ekanligini aniq ko'rsatib turibdi. Shu ma'noda, temir-beton qo'shma so'zini tahlil qiladigan bo'lsak, u kopulativ qo'shma so'z turiga mansubligi va ikkala komponent ham o'z ma'nosiga ega ekanligi ya'ni bir-birini aniqlab kelmayotganligini anglash mumkin. Bu qo'shma so'z komponentlariga “qanday temir?”, “Qanday beton yoki qanaqa temir, qanaqa beton?” deb savol qo'yib bo'lmaydi, chunki ular yaxlit bir tushunchani ya'ni narsani anglatib turibdi va temirdan yasalgan betonni bildiradi.

Quyida biz ingliz tilidagi bir necha tipdagi qo'shma so'zlar ro'yxatini misol sifatida keltiramiz:

*Ot + ot –football Ravish + fe'l –upgrade*

*Sifat + fe'l –whitewash*

*Ot + fe'l –manhandle*

*Predlog + ot –out –fox*

*Predlog + fe'l –underline*

*Sifat + fe'l –foulmouth*

*Ot + ot-moonlit*

*Fe'l + ot-playhouse*

*Ot + fe'l –moonshine*

*Predlog + ot-uptime*  
*Ot + ot-lifework*  
*Fe'l + predlog-showoff*  
*Fe'l + ot-telltale*  
*Predlog+ ravish-forever*  
*Sifat + ot-blackboard*  
*Fe'l + ot -breakwater*  
*Predlog + ot -underworld*  
*Ot + sifat -snow white*  
*Sifat + sifat -blue green*  
*Fe'l + sifat -tumbledown*  
*Predlog + sifat-over-ripe*  
*Ot + fe'l -browbeat*  
*Sifat + fe'l -highlight*  
*Fe'l + fe'l -freeze-dry*  
*Predlog + fe'l -undercut*  
*Ot + predlog -love-in*  
*Ravish + predlog -forthwith*  
*Fe'l+ predlog -takeout*  
*Predlog + predlog -without*  
*Predlog + fe'l -outrun*  
*Ravish + fe'l -upgrade*  
*Sifat + fe'l -whitewash*  
*Ot + fe'l -manhandle*  
*Predlog + ot -out -fox*  
*Predlog + fe'l -underline*  
*Sifat+fe'l-foulmouth*

## 5.SO'Z YASALISH TIZIMIDA QO'SHMA SO'ZLAR

Bugungi zamon tilshunosligidagi dolzarb muammolardan biri so'z yasalish hodisasi bo'lib, hali ham o'z murakkabligini yo'qotmagan bahsli munozara hisoblanadi. So'z yasalishi tilda mavjud bo'lgan imkoniyat va materiallar asosida yangi leksik birliklarni hosil qilishdan iborat. So'z yasalishi til lug'at tarkibini doimiy ravishda boyib borishiga xizmat qiladi.

Bizga ma'lumki, har bir tilning so'z yasashda o'ziga xos lingvistik xussiyatlari mavjud bo'lib, ularni tadqiq etish til taraqqiyotining sinxron va diaxron davrlari nuqtai nazaridan har doim ham dolzarb mavzuga aylangan. Bu borada ingliz va o'zbek tillari so'z yasalishning o'ziga xosligini o'rganish tilshunoslikda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixdan ma'lumki, so'z yasalishi oddiy, soddadek tuyulsada, ammo uning obyekt va subyekt tahlil mohiyati nihoyatda serqirra bo'lgani bois, tilshunoslikdan tashqari barcha sohada ham eng murakkab hodisa hisoblanadi. Sababi undagi muayyan qonuniyatlar bevosita til faktlari tahlili orqali o'z isbotini topishi kerak. Shu sabablarga ko'ra so'z yasalish hodisasini olimlar ba'zan morfologiyaga kiritishsa, ba'zan lekiskologiya sohasiga tegishli deb kelishadi. Juda ko'p ilmiy asarlarda so'z yasalishi grammatikaning tarkibida berilgan bo'lsa, boshqa bir adabiyotlarda esa leksikologiyaning bir qismi sifatida tatbiq etiladi.

So'z yasalishi hodisasini leksikologiya bo'limiga kiritgan olimlar A.I. Smirnitkiy, I.V. Arnold, T.I. Arbekova kabilarning ishlarini yuqoridagi fikrlarning isboti sifatida aytib o'tishni joiz deb bildik. O'zbek tilshunosligida so'z yasalishiga birinchilardan bo'lib o'z hissasini qo'shgan olim A.G'ulomovning 50–yillardagi maqolasini keltirib o'tsak: “So'z yasalishini biz hozirgacha morfolgik planda qarab kelmoqdamiz, holbuki, so'z yasalishi qanday bo'lmasin, biror bir usulda yangi so'z yasashi kerakdir. Demak, u leksika–so'z bahsiga qarashlidir. Eski grammatik ta'limotga ko'ra, so'z yasalishi va so'z o'zgarishi morfologiyada Haqiqatdan esa bular formal jihatdan o'xshash, funksional jihatdan esa boshqa–boshqa hodisadir: birinchisi–leksik, ikkinchisi– semantik hodisadir”.[8,55]

So'z yasalishi tilshunoslik fanida salmoqli ahamiyat kasb etar ekan, u

leksikologiya – tilning lug’at tarkibi haqidagi fan bilan, o’z o’rnida fonetika va grammatika bilan yaqin, ayniqsa shakl yasash ta’limoti hamda so’z birikmasi sintaksisi bilan ham bo’g’liqdir. Demak, so’z yasalishi masalalari tilshunoslikda leksikologiya, fonetik, grammatika sohalari bilan doimo birga o’rganib keladi.

So’z yasash til lug’atini boyitishning eng samarali usullaridan biri. Zamonaviy ingliz tilida so’z yasalishining ikki xil turi bo’lib, birinchi usul produktiv hisoblanadi. Bunday deyilishiga sabab bugungi kunda ham bu usullar orqali yangi so’zlar yasaladi va bular o’z ichiga quyidagilarni oladi:

- 1) affikslar yordamida (affiksatsiya);
- 2) konversiya;
- 3) abrivatura (qisqartirish);
- 4) kompozitsiya (so’z yoki negiz qo’shish orqali).

Affiksatsiya. Affikslar yordamida, ya’ni qo’shimcha qo’shib so’z yasash ingliz tilining uzoq tarixi davomida eng ko’p qo’llanilgan produktiv usuldir. Bunda biror–bir so’z turkumiga oid so’zga qo’shimcha qo’shiladi. Affiksatsiyaning ikki turi mavjud: prefiksatsiya va suffiksatsiya.

Prefikslar bu so’zning old qismiga qo’shiladigan qo’shimchalardir. Ingliz tilida prefiksatsiya hodisasi ko’proq fe’llarga xos. Prefikslar ham mustaqil so’z turkumlariga, ham vazifadosh so’z turkumlariga qo’shilishi mumkin. Mustaqil so’z turkumlariga qo’shiladigan prefikslar o’zakka bog’langan bo’ladi, masalan: *–un (unhappy)*. Vazifadosh so’zlarda ishlatiladigan prefikslar esa yarim bog’langan bo’ladi, sababi ular mustaqil holda ham ishlatilishi mumkin: *over (overhead)* [8,99].

Prefikslarning asosiy vazifasi so’zning leksik ma’nosini o’zgartirishdir. Prefikslar turli xil mezonlarga ko’ra klassifikatsiya qilinishi mumkin.

1. Semantik, ya’ni ma’no jihatiga ko’ra klassifikatsiya:
  - a) inkor ma’noli prefikslar: *in– (invaluable)*, *non– (nonformals)*, *un– (unfree)*;
  - b) ish –harakatning takrorlanishini bildiruvchi prefikslar: *de–(decolonize)*, *re– (revegetation)*, *dis– (disconnect)*;

d) vaqt, masofa va daraja ma'nolariga ishora qiluvchi prefikslar: *inter-* (*interplanetary*), *hyper-* (*hypertension*), *ex-* (*ex-student*), *pre-* (*pre-election*), *over-* (*overdrugging*).

2. Prefikslarning kelib chiqishiga quyidagi guruhlarini ko'rishimiz mumkin:

a) milliy (German tillariga oid): *un-*, *over-*, *under-* etc;

b) roman tillariga oid: *in-*, *de-*, *ex-*, *re-* etc;

d) grek tiliga oid: *sym-*, *hyper*.

Suffikslarning ingliz tilidagi asosiy xizmati – so'zlarning oxiriga qo'shilib, yangi ma'no yaratish. Suffikslarning qaysi so'z turkumida so'z yasashi, ma'no jihati, kelib chiqishi va produktivligiga ko'ra bir nechta turlari mavjud.

1. Ingliz tilida suffikslar qaysi so'z turkumiga oid so'z yasashiga ko'ra (bunda suffikslar bir so'z turkumidagi so'zdan boshqa so'z turkumiga oid so'zni yasashga xizmat qiladi) quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1) ot yasovchi suffikslar: *-er* (*fight – fighter*), *-dom* (*free – freedom*), *-ist* (*biology – biologist*);

2) sifat yasovchi qo'shimchalar – *able* (*eat – eatable*), *-less* (*symptomless*), *-ous* (*continuous*);

3) fe'l yasovchi qo'shimchalar: *-ize* (*computerize*), *-ify* (*micrify*);

4) ravish yasovchi qo'shimchalar: *-ly* (*slowly*), *-ward* (*tableward*);

5) son yasovchi qo'shimchalar: *teen* (*fourteen*), *-ty* (*sixty*).

2. Semantik, ya'ni ma'no jihatiga ko'ra ingliz tilida suffikslar quyidagicha klassifikatsiya qilinadi:

a) ish-harakat bajaruvchisi: *-er experimenter*, *-ist taxiist*, *-ent (student)*;

b) millat: *-ian (russian)*, *-ese (Chinese)*, *-sh (English)*;

d) collectivity: *-ry (peasantry)*, *-ship (leadership)*, *-ati (literati)*;

e) kichraytirish-erkalash: *-ie (horsie)*, *-let (booklet)*, *-ette (kitchenette)*;

f) sifat: *-ness (hopelessness)*, *-ity (answerability)*;

3. O'zakning leksik-semantik xususiyati bo'yicha ma'lum bir o'zaklarga

qo'shiladigan suffikslar quyidagilarga bo'linadi:

a) fe'lga qo'shiluvchi qo'shimchalar: *-er (commuter), -ing (suffering),*

–

*able (flyable), -ment (involvement), -ation (computerization);*

b) otga qo'shiladigan qo'shimchalar : *-less (smogless), ful (roomful), -ism (adventurism), -ster (pollster), -nik (filmmik), -ish (childish);*

d) sifatlarga qo'shiladigan qo'shimchalar: *-en (weaken), -ly (pinkly), -ish (longish), -ness (clannishness).*

4. Kelib chiqishiga ko'ra suffikslarning quyidagi guruhlarni ajratib ko'rsata olamiz:

a) milliy (german tillariga oid), *-er, -ful, -less, -ly;*

b) roman tillariga oid : *-tion, -ment, -able, -eer;*

d) grekcha: *-ist, -ism, -ize;*

e) rus tiliga oid *-nik.*

5. Produktivligiga ko'ra suffikslarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

a) produktiv: *-er, -ize, -ly, -ness;*

b) yarim–produktiv: *-eer, -ette, -ward;*

d) produktiv bo'lmagan: *-ard (drunkard), -th (length).*

Affiksatsiya jarayoni eng mahsuldor usuldan biri bo'lib, o'tmishdan hozirgacha yangi so'z yasashda xizmat qiladi. Bu usulda so'zga qandaydir qo'shimcha qo'shish orqali yangi so'z yasaladi. So'zning oldiga yoki so'zning oxiriga qo'shimcha qo'shish orqali bu jarayon produktivligini yo'qotmagan.

Konversiya. Konversiya ingliz tili so'z yasash tizimining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. U yana, shuningdek, qo'shimchalarsiz so'z yasash, deb ham ataladi. Konversiya so'zi “conversion” so'zidan olingan bo'lib, bu so'z birinchi marta Henri Svitning 1891– yilda chiqarilgan “yangi ingliz tili grammatikasi” kitobida ishlatilgan.[9,33]

Olimlar konversiya haqida turli xil fikrlarni ilgari surishgan. Masalan, professor A.I. Smirntitsky konversiya so'z yasashning morfologik usuli degan. Ushbu holatda bir so'z turkumiga oid so'z boshqa so'z turkumiga paradigmasini

o'zgartirgan holatda o'tadi. Misol uchun, a dial oti o'z paradigmasini o'zgartirib, to dial fe'liga aylanadi. A. Marchand esa o'zining «The Categories and Types of Present-day English» kitobida konversiyani morfologik–sintaktik usul, deb atagan, chunki biz bunda nafaqat so'zning paradigmasini o'zgartiramiz, balki uning sintaktik vazifasini ham almashtiramiz. Masalan, *I need some good paper for my room* («paper» oti ushbu gapda to'ldiruvchi). *I paper my room every year* (bu gapda esa “paper” fe'li kesim vazifasida kelgan). Bugungi kunda konversiya ingliz tilida fe'l yasashning eng asosiy usullaridan biridir. Fe'llar turli xil semantik guruhlarga mansub otlardan yasaladi, shuning uchun turli ma'nolarga ega bo'ladi:

1) agar inson tana qismlarini bildiruvchi otdan yasalsa, fe'l instrument ma'nosiga ega bo'ladi: *to eye, to finger, to elbow, to shoulder* va boshqalar. Agar asbob–uskuna, qurol, instrumentni bildiruvchi otdan yasalsa, fe'l instrument ma'nosiga ega bo'ladi: *to hammer, to machine–gun, to rifle, to nail*;

2) fe'llar o'zi yasalgan ot ishora qilgan tirik mavjudotlarga xos harakatlarga ishora qilishi mumkin: *to crowd, to wolf, to ape*;

3) agar predmetga ishora qiluvchi otdan yasalgan bo'lsa, fe'llar o'zlashtirish, qo'shimcha qilish yoki mahrum qilish ma'nolarini beradi: *to fish, to dust, to peel, to paper*;

4) o'zi yasalgan ot joy nomini bildirsa, fe'llar o'sha joyga ishora qilishi mumkin: *to park, to garage, to bottle, to corner, to pocket*;

5) o'zi yasalgan ot paytni bildirsa, fe'llar o'sha paytga ishora qilishi mumkin: *to winter, to week–end*.

Fe'llar sifatdan ham o'zlashtirishi mumkin, bunday holatlarda ular holatning o'zgarishiga ishora qiladi: *to tame, to clean, to slim*. Fe'llar ham otga o'zgarishi mumkin. Konversiya orqali yasalgan otlar quyidagilarga ishora qiladi:

1) qisqa vaqtda bajariladigan ish–harakatlar: *a jump, a move*;

2) jarayon yoki holat: *sleep, walk*;

3) o'zi yasalgan fe'l orqali ifodalangan ish–harakatning bajaruvchisiga: *a help, a flirt, a scold*;



4) o'zi yasalgan fe'l orqali ifodalangan ish–harakatning obykti yoki natijasiga: *a burn, a find, a purchase*;

5) fe'l tomonidan ifodalangan ish–harakat o'rniga: *a drive, a stop, a walk*.

Fe'ldan yasalgan ko'p otlar faqat birlik shaklda ishlatilishi mumkin va ular lahzalik ish–harakatlarga ishora qiladi. Bunda ular quyidagi fe'llar bilan birga ishlatiladi: *to have, to get, to take* va boshqalar. Masalan: *to have a try, to give a push, to take a swim*.

Konversiya usuli, yuqoridagilarni hisobga olib aytadigan bo'lsak, o'ziga xos so'z yasalishi usuliga kiradi va shu jihatlari orqali ushbu produktiv usulda muhim rol o'ynaydi.

Abbrivatura. So'z va so'z guruhlarining qisqarishi hisoblanadi. Bu qisqarishning sababi lingvistik va ekstra–lingvistik tusga egadir. Ekstra–lingvistik sababida odamlar hayotining o'zgarishi va bu o'zgarishlar ko'pgina qisqarishlarga duch kelishini ko'rishimiz mumkin. [9,18]

Zamonaviy ingliz tilida bir qancha yangi abbrivatura formalari mavjud bo'lib, bu hayot tarzi jadallik bilan o'sib ketmoqda va imkon darajasida ko'p ma'lumotga ega bo'lishimiz kerak degani.

Qisqartma so'zlarning asosiy 2 ta turi bo'lib, ular grafik va leksik jihatdan farqlanadi. Grafik jihatdan ular yozma matnda joylarni kamroq egallash uchun ishlatiladi. Ular ham o'z o'rnida bir nechta semantic guruhlariga bo'linib ketadi. Biz bu yerda misollar berish bilan kifoyalansak maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan: *days of weeks – Mon., names of month – Apr., names of countries – UK*. Leksik tomondan so'zning bir qismini qisqartirish orqali yasaladi va leksik nuqtai–nazaridan apokoplar deyiladi. Masalan: *disco (dicotheque), expo (exposition), intro (introduction)*.

Qisqartma so'zlar bosh harflarni qisqartirish yo'li bilan odatda leksik ham, grafik ham turda bo'lishi mumkin. Masalan: *J.V – joint venture– grafik, BBC –*

leksik turga misol bo'la oladi. Shuni ta'kidlash joizki, abbrivatsiya tarixdan hozirgacha eng mahsuldor va qiziqarli so'z yasaliş usuli hisoblanadi. Shu sababga ko'ra, zamonaviy ingliz tilida keng tarqalgan.

Qo'shma so'zlar. Keling endi tadqiqot ishining asosiy mazmuni bo'lmish qo'shma so'zlarning so'z yasalişidagi ahamiyati va mazmunini ko'rib chiqsak. Barcha tilshunoslik hodisalari kabi qo'shma so'z yasalişiga ham zamonaviy va tarixiy yondashuv mavjud. Zamonaviy yondashuv asosan qo'shma so'zning strukturaviy va semantik xususiyatlariga ko'proq e'tibor qaratsa, tarixiy yondashuv vaqt o'tishi bilan qo'shma so'zlarda sodir bo'lgan o'zgarishlarni o'rganadi.

Qo'shma so'z paydo bo'lishi bilan ingliz tilidagi barcha ko'p bog'inli so'zlardek fonetik o'zgarishlarga duch keladi. Ushbu fonetik o'zgarishlar, o'z navbatida, so'zning morfologik strukturasi ga ham ta'sir o'tkazadi. Qo'shma so'z tarkibidagi alohida olingan morfemalar yo'qolib ketishi, qo'shma so'zning tarkibiy ma'nosi o'zgarishi yoki umuman unutilishi mumkin. Ushbu jarayon, ya'ni oddiylashish jarayoni, davomida qo'shma so'z shunchalik keskin o'zgarishlarga uchrashi mumkinki, ular yasama yoki oddiy so'zlarga aylanadi. [10,89]

Oddiy til foydalanuvchisi yangi so'zlarning vujudga kelishi yoki ularning tilga o'rnashish jarayonini boshqaruvchi faktorlarga ko'p ham e'tibor beravermaydi. So'zni tushunish uchun uning qanday shakllanganligini, oddiymi yoki murakkab ekanligini aniqlash shart emas, ya'ni uning qismlarga bo'lina olishi yoki olmasligi unchalik muhim emas. Biz o'zimiz uchun yangi bo'lgan so'zni u bildirgan tushuncha yoki predmetga qarab bilib olishimiz mumkin. Ba'zi so'zlar boshqalariga qaraganda shaffofroq. Misol uchun, *indescrivable* so'zida bizga tanish bo'lgan hamda boshqa ko'plab so'zlar yasalişini mumkin bo'lgan "inkor qo'shimchasi + o'timli fe'l + sifat yasovchi qo'shimcha» strukturasi ni ko'rishimiz mumkin. Ushbu strukturani bilgan holda, biz osonlik bilan uning ma'nosini chiqara olamiz: "tasvirlab bo'lmaydigan" ("cannot be described"). Shunga qaramasdan, biz xuddi shu strukturaga ega bo'lgan, lekin ushbu tahlil ish bermaydigan so'zlarni ham uchratishimiz mumkin:

*Unfashionable, unfavorable.*

So'z yasashida qo'shma so'zlarning ahamiyati haqida alohida urg'u bergan holda, bu hodisaning yasash usullari va jarayonini ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. Qo'shma so'zlarni yasash jarayoni bir necha xil ko'rinishda bo'lishi mumkin:

1. Qo'shma so'zlar ma'lum davrdagi produktiv formulalar bilan bir vaqtda vujudga kelishi. Ma'lum vaqt produktiv bo'lgan formula, kun kelib o'zining bu qobiliyatini yo'qotishi ehtimoli yuqori. Shunga asosan, ma'lum paytda "fe'l +

ravish" formulasi juda produktiv bo'lgan va unga mos tarzda bir qancha qo'shma so'zlar yasalgan: *outgrow, overturn* kabi, lekin bugungi kunda bu struktura produktiv hisoblanmaydi va so'zlar yasalishi to'xtatilgan.

2. Qo'shma so'zlar erkin so'z birikmalarining strukturaviy qo'shilishi yoki sekin-asta semantik izolatsiya jarayoni natijasi bo'lishi. Bularga misol tariqasida *forget – me – not – ko'k gulli kichik o'simlik, scarecrow – qushlarni qo'rqitish* uchun yasalgan qo'riqchi, *pickpocket – cho'ntakkesarlik, bridesmaid – kelin dugonasi* kabi so'zlarni keltira olamiz. Ushbu qo'shma so'zlar aslida erkin so'z birikmalari bo'lgan va keyinchalik vaqt o'tishi bilan semantik va strukturaviy jihatdan izolyatsalangan. Yuqoridagi qo'shma so'zlarni tashkil qilgan so'zlar bir vaqtlar anglatgan ma'nosini yo'qotgan, ularning qaysi so'z turkumiga oidligi va butun bir ibora izolyatsalangan, ma'nosi maxsuslashtirilgan, natijada ajralmas qo'shma so'zlarga aylangan [10,120].

Ingliz tilshunosligidagi ikkinchi so'z yasash usullari ham bo'lib, ular eski ingliz tilida so'z yasay olgan, ammo bugungi kunga kelib bunday xususiyatlarini yo'qotgan produktiv bo'lmagan usullardir. Ular quyidagilardan tashkil topgan:

- 1) tovush o'zgarishi;
- 2) urg'u o'zgarishi;
- 3) tovushga taqlid;
- 4) uyg'unlashtirmoq;

## XULOSA

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan 21-asr tilshunosligidagi dolzarb muammolardan biri soʻz yasash hodisasi boʻlib, hanuzgacha oʻz murakkabligini yoʻqotmagan bahsli munozara hisoblanadi. Chunki bugun oʻz oʻrnini ertaga boʻshatib, tarixga aylanar ekan, qoʻshma soʻzlar ham rivojlanib va yangilanib borgani sari baʼzilari tarixiy soʻzga, baʼzilari esa yoʻqolib borish hodisasiga uchraydi.

Tilda mavjud boʻlgan imkoniyat va materiallar asosida yangi leksik birliklarni hosil qilish soʻz yasashining asosiy maqsadi hisoblanadi. Ushbu hodisa tildagi lugʻat tarkibini doimiy ravishda boyitib borishga xizmat qiladi. Tilshunoslik fanida salmoqli ahamiyat kasb etadigan soʻz yasashi hodisasi deyarli barcha fanlar bilan juda yaqinlikda xususan, u leksikologiya – tilning lugʻat tarkibi haqidagi fan bilan, oʻz oʻrnida fonetika va grammatika bilan yaqin, ayniqsa shakl yasash taʼlimoti hamda soʻz birikmasi sintaksisi bilan ham boʻgʻliqdir. Tilshunoslikda soʻz yasashi masalalari leksikologiya, fonetika, grammatika sohalari bilan doimo birga oʻrganilib keladi.

Ingliz tilida soʻz yasash hodisasi produktiv va produktiv boʻlmagan turlarga boʻlinadi. Produktiv usulga qoʻshimcha qoʻshish, konversiya, abrivatsiya (qisqartirish), kompozitsiya (qoʻshish orqali), produktiv boʻlmagan usulga esa tovush oʻzgarishi, urgʻu oʻzgarishi, tovushga taqlid, uygʻunlashtirmoq, qayta tiklash kiritiladi.

Oʻzbek tilida soʻz yasash usullariga affiksatsiya– (asos + soʻz yasovchi qoʻshimcha) asosga soʻz yasovchi qoʻshimcha qoʻshilishidan yangi soʻz yasaladi, semantik usul– bunda bir turkumga xos soʻz boshqa soʻz turkumiga koʻchib, yangi maʼno anglatadi, semantik–leksik usul– bir vaqtlar soʻz birikmasi boʻlgan soʻzning qoʻshma soʻzga aylanib ketishi, soʻzlarni qisqartirish usuli, kompozitsion usullari kiradi.

Qoʻshma soʻzlar bilan tarixdan hozirgacha jiddiy izlanishlar olib kelingan. Jumladan: A.I.Smirnitskiy, I.V.Arnold, T.I.Arbekova, D.A.Shepelova Marchand kabi tilshunoslarning soʻz yasashi borasidagi ishlari sara namunalardan

biri hisoblanadi. Xususan, ilk marotaba qo'shma otlarning to'liq asoslangan (motivation) va to'liq asoslanmagan (non –motivation) tizimlarining ta'rifini D.A. Shepelovaningishlarida ko'rishimiz mumkin.

Qiyoslanayotgan har ikkala tilda ham qo'shma so'zlar so'z birikmalaridan alohida ajralib turadi. Qo'shma so'zning so'z birikmasidan farqi shundaki, qo'shma so'zning komponentlari morfema, so'z birikmasining komponentlari esa so'z bo'ladi. Shu sababli qo'shma so'zning komponentlari yaxlitligicha bir leksik ma'no ifodalaydi va komponentlari o'rtasida sintaktik aloqa bo'lmaydi. Qo'shma so'z elementlari yaxlit bitta ma'no beradi, o'zaro zich bog'lanadi va leksik munosabat bo'ladi. So'z birikmasi elementlari o'z mustaqilligini saqlaydi va erkin holatda bo'ladi. Sintaktik munosabat bo'ladi.

Qo'shma so'zlar orfografik jihatdan ingliz va o'zbek tillarida o'xshash hisoblanadi. Bu jihatiga ko'ra ular uchga bo'linadi: qo'shib yoziladigan, chiziqcha bilan yoziladigan, ajratib yoziladigan qo'shma so'zlar. Semantik xususiyatiga ko'ra esa ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlar quyidagi turlarga bo'linadi. a) to'liq asoslangan; b) qisman asoslangan; c) asoslanmagan.

Nutq turkumlariga ko'ra qo'shma so'zlar quyidagicha klassifikatsiyalanadi:

a) vazifasi nuqtai nazaridan; b) qo'shma so'zlarning tarkiblari bog'lanish jihatidan; c) turli xil qo'shilish yo'llari nuqtai nazaridan. ega va kesimning moslashuvi, bog'lanish xususiyati, tarkiblarning mos kelishi hamda, qo'shma so'zlarning tarkiblarida alohida ahamiyat kasb etadi.

Endosentrik va ekzosentrik qo'shma so'zlarning tomonlari ham alohida e'tiborga loyiq bo'lib, endosentrik – qo'shma so'z komponentlaridagi ma'nolarning yig'indisidan yangi ma'no berish bo'lsa, ekzosentrikda – elementlar tarkibidagi ma'no o'sha qo'shma so'zning ma'nosiga umuman bog'liq bo'lmagan hisoblanadi.

Kognitiv tilshunoslik orqali qo'shma so'zlarni tadqiq qilish tilshunoslikdagi eng zamonaviy tahlillardan biridir. Kognitiv tilshunoslik fani 21–asrdagi tilshunoslikning eng yangi va yosh bo'limi sifatida dunyoga keldi. Bugungi kunda

bu fan zamonaviy lingvistikada mustahkam o'rin egallayotgan tilshunoslikning eng dolzarb yo'nalishlaridan biridir.

Bu yangi yo'nalish til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan izlanuvchilarning ishlari orqali kelib chiqdi. Kognisiya, ya'ni bilish jarayoni, ma'lumotni qabul qilish, uzatish yoki yuborish va yaratish faoliyatini o'z ichiga oladi, bu holatlar lisoniy zahira bilan bog'liq bo'lib shubhasiz, bu lison bilan bilvosita yoki bevosita aloqada bo'ladi. Shu xususiyatiga ko'ra bilish fenomeni lisoniy qobilyat bilan bog'liqdir. Ma'lumki, inson narsa va predmet, hodisalarni bilishda, idrok qilishda qator mantiqiy–ruhiy harakatlarga ega bo'lgan faoliyatni amalga oshiradi. Kognitiv tahlilda olamni bilish jarayonida yuzaga keladigan mantiqiy (mental) strukturalarning lisoniy ifodasini ochib beruvchi mexanizmlar qurshovidagi uslub va vositalar tadqiqi asosiy o'ringa chiqadi.

Freym analizi, kognitiv metafora va kognitiv xarita zamonaviy kognitiv tilshunoslikdagi eng faol asosiy metodlardan hisoblanadi. Freym – tilda berilgan tushuncha bizning miyyamizda butun bir holat yoki vaziyat sifatida namoyon bo'lishidir bu esa miyyamizda faqatgina bitta tushuncha kirib qolishini rad etadi.

Ta'sirchanlik va badiiy bo'yoqdorlik kognitiv metaforada muhim rol o'ynashi bilan birgalikda, bunda ikkita asosning o'zaro bog'liqligi va odatda shoirlar va notiqalar tomonidan ko'pincha ishlatilishi bilan alohida ajralib turadi va odatda so'zning ko'chma ma'nosi sifatida qaraladi. Kognitiv metaforadagi ikkita tarmoq ya'ni nishon va manba tarmoqlari bo'lib, odatda nishon qismi tasvirlanishi kerak bo'lgan asos bo'lsa, manba qismi esa metaforaga oid bo'lgan qismi bo'lib, nishon qismining mag'zini ochib beradi.

Kognitiv xarita – konseptning lingvistik ma'nosini ochib berishdagi xizmatidan tashqari u nomoddiy tahlil sifatida ham qaraladi. Konseptdagi ma'noni yanada chuqurroq tahlil qilishda va konseptning lingvistik ko'rinishini ifodalashda tilshunoslar tomonidan taklif qilingan kognitiv xaritani quyidagi strukturalari bor: lug'atdagi ma'nolar va lug'atshunoslikdagi izohlar, paradigmatic bog'lovchilar,

syntagmatik bog'lovchilar, yordamchi bog'lovchilar, frazeologik bo'limlarda, tushunchaning tabiiy konseptualligi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. A. Iskos, A. Lenkova. Deutsche Lexikologie.-Ленинград, 1970.
2. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi. Toshkent.1995.
- 3.Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari.–Toshkent: Fan, 1985.
4. Bruce Hayes. Introductory Phonology. Wiley, 2009.
5. Contemporary Linguistics: An Introduction. William O'Grady,J.Archibald, M. Aronoff, and J. Rees-Miller, Bedford/St. Martin's.2001.
6. Cross-Disciplinary Issues in Compounding. Amsterdam, Benjamins.2010.
7. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Ilm –ziyo, 2010.
8. Hozirgi zamon o'zbek tili. Toshkent: Fan, 1957.
9. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I, II jild. Toshkent: Fan, 1966.
10. James R. Hurford, Grammar: A Student's Guide. Cambridge University Press, 1994.

Tasdiqlayman:

Kafedra mudiri \_\_\_\_\_ Z.I.Rasulov  
“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 20\_\_\_\_y.

Kafedra \_\_*Ingliz tilshunosligi*

## **K u r s   i s h i**

Kurs bo'yicha \_\_\_\_\_  
Guruh \_\_\_\_\_ Talaba \_\_\_\_\_ Rahbar \_\_\_\_\_

## **T o p s h i r i q**

1. Ish mavzusi \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

2. Boshlang'ich ma'lumotlar: \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

3. Qo'llanmalar: \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

4. Asosiy qismning tuzilishi, reja: \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

5. Qo'shimcha topshiriq va ko'rsatmalar: \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

Kurs ishini topshirish davri: Reja \_\_\_\_\_ Amalda \_\_\_\_\_

Bosqichlar					Himoya
1	2	3	4	5	

Rahbar: \_\_\_\_\_